



O'QITISH METODIKASI VA UNING ASOSLARI

Sotiboldiyeva Ruxshona Baxtiyor qizi

Sotiboldiyeveruxshona9@gmail.com

Feruza Sobirova Islomjon qizi

f.sobirova@uzswlu

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qitish metodikasi tushunchasi uning turlari va asosiy metodlari batafsil yoritilgan. Shuningdek mashhur olimlarning fikrlari orqali o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish, metodika, metodlar, ta'lim, pedagogika.

Kirish

O'qitish metodikasi- bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning bilimini, ko'nikma va malakalarini shakllantirish usullarini o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. Metodika nafaqat ma'lumot berish balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida metodika rolining ahamiyati oshib bormoqda, chunki har bir dars samarali bo'lishi uchun pedagog o'quvchilarga mos metodlarini tanlashi kerak.

O'qitish metodikasi ta'lim sifatini oshirish, daeslarni interaktiv va qiziqarli qilish, o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash imkonini beradi. Shu sababli pedagoglar zamonaviy metodlari doimiy ravishda o'rganib amaliyotda qo'llanishi kerak.

O'qitish metodikasi turlari.

1. An'anaviy metodika.

Bu metodika asosiy diqqatni bilim berishga qartadi va ko'pincha maruza, izoh, savol-javob shaklida olib boriladi. An'anaviy metodika o'quvchilarga tizimli bilim berishda samarali bo'lib ularni mavzusini chuqur o'zlashtirishga undaydi.

2. Faol metodika



Talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Bu metodlar: muhokama, rolli o'yinlar, loyiha ishlari va tajriba kuzatuvlar orqali amalga oshiriladi. Faol metodika o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

3. Integratsiyalangan metodika.

Fanlararo bog'lanishni ta'minlaydi va o'quvchilarning ko'p qirrali fikrlashini rivojlantiradi. Masalan matematika va fizika, tarix va adabiyot fanlarini birlashtirib o'quvchilarga mavzuni kengroq tushuntirish mumkin.

Asosiy metodlar va ularning qo'llanilishi

O'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar quyidagilar:

1. Maruza metodi

Bu metod asosiy bilimlarni tizimli yetkazish uchun ishlatiladi. Maruza davomida o'quvchilar yangi ma'lumotlarni tinglaydi va asosiy tushunchalarni yozib oladi.

2. Savol-javob metodi

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Pedagog savol beradi o'quvchilar esa javob beradi. Bu metod o'quvchilarning mavzuni chuqur tushunishiga yordam beradi.

3. Amaliy metod

Laboratoriya, tajriba va praktikumlar orqali bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan biologiya darsida o'quvchilar o'simliklar yoki hayvonlarni kuzatish orqali bilimlarni mustahkamlaydi.

4. O'yin va rolli metod

Darsni qiziqarli qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun ishlatiladi. Talabalar turli rollarni o'ynab mavzuni amaliy ravishda o'rganadilar.

J. Deveyning fikricha: Ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasligi balki o'quvchilarning faoliyatga asoslangan o'rganishini ta'minlashi kerak.



L.Vygotskiy fikricha: Har bir bolaning rivojlanishi zonasi mavjud bo'lib, o'qituvchi ularni qo'llab-quvvatlash orqali bilimlarni samarali shakllantirishi mumkin. K.Rogers aytganidek, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim va o'quvchi mustaqil fikrlashga o'rgatilishi kerak. Mashhur olimlarning fikrlari shuni ko'rsatadiki, metodlar nafaqat nazariy bilim berishga balki o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa O'qitish metodikasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Turli metodlar bir-birini to'ldiradi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda qo'llaniladi. Mashhur olimlarning fikrlari esa metodikani amaliyotga tatbiq etishda qo'llaniladigan yondashuvni aniq ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Axmedov.O(2018).O'qitish metodikasi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent:O'qituvchi nashriyoti.
- 2.Sultonov.R.(2017). Pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlari.Toshkent:Fan.
- 3.Sobirova.F.(2020). Innovatsion metodlar va zamonaviy ta'lim tizimi.Toshkent:Universitet nashriyoti.
- 4.Dewey.J.(1916). Democracy and Education.New York:Macmillan.
- 5.Gagne. R.M.(1985).The Conditions of Learning and Theory of Instruction.New York:Holt.Rinehart & Winston.
- 6.Bloom.B.S.(1956).Taxonomy of Educational Objectives.The Classification of Educational Goals.New York:Longmans.
- 7.Zakirov.M.(2019).Ta'lim va pedagogika metodikasi asoslari.Toshkent:Sharq.
- 8.Kuznetsov.V.P.(2015).Metodika obucheniya:Teoriya i praktika.Moskva:Prosveshchenie.
- 9.Shamsiyeva.L.(2021).O'qitish metodlari va didaktik vositalar. Toshkent:Akademnashr.